



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **GERMENEVTIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA TUSHUNISH JARAYONI**

**Botirova Sevara Mamurovna**

Namangan davlat pedagogika instituti, kafedra mudiri, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada inson kognitiv qobiliyatlaridan biri bo'lgan anglash jarayonining ijtimoiy muloqot va hermenevtik tafakkur shakllanishidagi jarayonlardagi dolzarbligi, ta'siri va rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Natijada inson tafakkuridagi talqin nazariyasidagi murakkab masalalardan biri atroflicha o'rganilib, xulosalangan.

**Kalit so'zlar:** tushunish, argumentlar, intellekt, hermenevtik tafakkur, dunyoqarashlardagi nisbiylik, anglash jarayoni, xulosalash, mantiqiylik, ijtimoiy munosabatlar.

## **ПРОЦЕСС ПОНИМАНИЯ В РАЗВИТИИ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ**

**Ботирова Севара Мамуровна**

Наманганский государственный педагогический институт, заведующая кафедрой, доцент (PhD)

### **Аннотация**

В данной статье анализируются значимость, влияние и процессы развития процесса понимания, одной из когнитивных способностей человека, в процессах социальной коммуникации и формирования герменевтического мышления. В результате всесторонне изучен и обоснован один из сложных вопросов теории интерпретации в человеческом мышлении.

**Ключевые слова:** понимание, аргументы, интеллект, герменевтическое мышление, относительность в мировоззрениях, процесс понимания, умозаключение, логика, социальные отношения.

## **THE PROCESS OF UNDERSTANDING IN THE DEVELOPMENT OF HERMENEUTIC THINKING**

**Botirova Sevara Mamurovna**

Namangan State Pedagogical Institute, Head of Department, Associate Professor (PhD)

### **Abstract**

This article analyzes the relevance, influence, and development processes of the process of understanding, one of the human cognitive abilities, in the processes of social communication and the formation of hermeneutic thinking. As a result, one of the complex issues in the theory of interpretation in human thinking has been thoroughly studied and concluded.

**Keywords:** understanding, arguments, intellect, hermeneutic thinking, relativity in worldviews, the process of understanding, inference, logic, social relations.

Germenevtik tafakkurda tushunish jarayoni zarurligi sababli inson anglashi ayrim hollarda uning ijtimoiy mavjudligi va faoliyatining asosi sifatida ham ta'riflanadi. Germenevtikaning o'zi ham tushunish va uni boshqalarga tushuntirish asosida o'z mohiyatiga ega bo'lgani uchun, u insonlarning qaysi axborotni qay darajada o'zlashtira olishi, unga qay tarzda munosabat bildirishi va uni qanchalik oson o'zlashtirishi kabi masalalarni o'rganmasdan rivojlana olmaydi. Ana shunday asoslarda inson zarur anglash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etganida, unda turli darajadagi hermenevtik tafakkur shakllanadi.

Bilimlarni ifodalash va yetkazish, ijtimoiy munosabatlar doirasida ularni mantiqiy hamda mohiyat jihatidan to'g'ri anglash va boshqalarga ham ayni aniqlik hamda mohiyatni buzmasdan yetkaza olish insondagi hermenevtik talqin qilish mahoratining muhim qismi hisoblanadi. Chunki

“Germenevtika insonni to‘rt narsaga o‘rgatadi: 1-si ishonch, ya‘ni insonning o‘zligiga, o‘z ruhiga ishonchi; 2-si insonni tushunish, ya‘ni insonning atrof-muhiti, uni o‘rab turgan borliq bilan muvozanatini tushunib yetish” [1. 16-b.]. Germenevtik tafakkur insonda tushuncha va bilim manbalarining tub mohiyatini aniqlashtirish hamda izohlab bera olishdagi samaradorlik asosida erishiladigan tafakkur darajasi sifatida tushunish bilan bevosita bog‘liqdir.

Anglash individ va ijtimoiy darajada farqlanadi hamda biri ikkinchisining rivojlanishiga turtki beradi. Ko‘p hollarda jamiyatning ijtimoiy anglash darajasi individ dunyoqarashini shakllantiradi. Biroq bu jarayon dogmatik tarzda qotib qolmagan. Asta-sekin o‘z tarafdorlarini to‘play oladigan yakka shaxslar tafakkuri butun bir millatning, xalqning tafakkuriga aylanishi holatlari ham kuzatiladi. Ular olam va undagi voqeliklarni sharhlagan holda, qolganlar uchun ham amal qiluvchi anglash qoidalarini belgilab bera oladilar. Xitoy faylasufi Konfutsiy ta‘limoti ham ayni shu asosda qadimgi Xitoy madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan.

Germenevtika axborotlarni insonlarga sharhlash orqali ulardagi dunyoqarash shakllanishini yaxshilashga yordam beradi. Biroq bunda murakkablik shunda namoyon bo‘ladiki, axborotlar turli jamiyatlar va ulardagi tabaqalar tomonidan turlicha bayon qilinadi. Ularning turli toifalariga ham turlicha yondashuv asosida bayon qilinishi zarur. Sharq mutafakkiri Sa‘diy Sheroziy “insonlar bilan ularning aqliga monand gaplash” deyishining zamirida ham shu maslak yotadi. Ayrim hollarda tushuntirishdagi talqinlarning haddan tashqari ko‘payishi axborot manbayiga bo‘lgan ishonchni ham susaytiradi.

Inson tushunishi bunda sodda empirik darajadan murakkab argumentlar asosida to‘g‘ri anglash darajasigacha yetib boradi. Tushunish jarayonida matn, og‘zaki va noverbal tarzda yetkazilgan ma‘lumotlarni anglashda murakkabliklar yuzaga chiqishi tabiiy hol bo‘lib, buning o‘ziga xos quyidagi sabablari mavjud:

- turli tillardan tarjima qilishda yuzaga keladigan ma‘no-mohiyatdagi farqlanishlar;
- kontekst asosidagi yondashuv buzilishi natijasida talqinda kelib chiqadigan nomuvofiqliklar;
- insonlarning tushunishi uchun murakkab bo‘lgan va asliy mohiyatini ochib beruvchi vositalari yo‘qolgan bilim manbalari.

Germenevtik tadqiqotchilardan F. Shleyermaxer munosabat bildirishicha, “germenevtikaning asosiy vazifasi — muallifning subyektiv dunyosiga kirish va uning matnda aks etgan ma‘naviy mahsulini tushunishdan iborat” [2. 13-b.]. Tushunishda yuzaki qarashlar, majoziy ma‘nolar, yashirin mohiyatlar va ifoda uslublarining ko‘pligi sababli samarasizlik yuzaga keladi. Faqatgina ijtimoiy hayotdagi sodda muloqotda yuzaki yondashuv asqotishi mumkin, biroq qiyinchilik tug‘diruvchi ilmiy doirada bu yetarli bo‘lmaydi. Shleyermaxer aytganidek, germenevtik darajada tushunish tor doiradagi tushunishdan ko‘p jihatdan farq qiladi, ayniqsa muallif darajasida ko‘rib chiqiladigan anglash nuqtayi nazaridan.

Til qiyinchiliklari natijasida uchraydigan germenevtik sharhlash tadqiqotlari Misr iyerogliflari bilan bog‘liq matnlarni o‘rganishdagi ilmiy izlanishlarda ma‘lum bo‘lgan. Unda qadimgi misrliklar o‘z yozuv uslublari uchun ramziy o‘xshatish asosida tuzgan maxsus alifboning asl ma‘nosini sharhlash murakkab bo‘lib qolgan edi. “Rozett” bitiktoshining topilishi va undagi til tarjimasida asosida til to‘sig‘i bartaraf etilgan. Muammo faqat til bilmaslikdagina emas, balki tildagi leksemalarning bir vaqtning o‘zida bir nechta ma‘nolarni ifodalab kelishida, shuningdek, iboralar kabi ma‘no birliklarining xato tushunilishi natijasida ham kelib chiqadi.

Tushunish inson aqliy tafakkurining amaliy faoliyat shakli sifatida zehn va xos bilimlarni o‘rganish nuqtayi nazaridan alohida tavsiflanishi lozim. Zehnga bog‘liqlikda tushunish insonning xotirasi va anglashidagi intellektual qobiliyatiga mos bo‘lgani holda, xos bilimlarga oid tushunish biroz murakkabroq bo‘ladi. Bunda inson muayyan bilimlarni anglashi uchun unga qadar maxsus tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Germenevtika dastlab qo‘llangan muqaddas kitoblar (Qur‘on, Injil, Tavrot)ni sharhlash ilmi ham shu qonuniyatga asoslangan edi. Ruthven Malisning Qur‘on tafsiridagi ayni shunday ilm talabiga oid fikricha, “Ba‘zi qiyinchiliklar har qanday tarjimaning

o'ziga xos qiyinchiligidan kelib chiqadi; arab tilida, boshqa tillarda bo'lgani kabi, bitta so'z turli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin" [3. 90-b.].

Matn va g'oyalarning makon va zamon munosabatida farqlanib ketishi bilan yuzaga keladigan tushunishdagi kontekstga asoslangan yondashuv uzluksiz ravishda tanqidiy-tahliliy tafakkur yondashuvi natijasida amalga oshib boradi. Zamonlar o'zgarishi bilan bir g'oya inson tafakkurida yangilanib, butkul o'zgacha mohiyat kasb etishi ham mumkin. Ayrim hollarda u butkul inkor etilmay, yangi davr jamiyati hayotiga moslashtirib boriladi. Foma Akvinskiyning ilohiy-falsafiy ta'limotlarining G'arb falsafasining yangi davrida tomizm falsafiy yo'nalishi sifatida qayta tatbiq etilgani ham ayni shu voqelikning amaliy ifodasidir.

Ilm-fan doirasining inson imkoniyatlari qamrovidan cheksizligi insonning muayyan sohada kuchli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgandagina o'rganiladigan bilimlarni tushunishiga yordam beradi. Qadimgi Afina mutafakkirlari insonlarga ilmni murakkab matnlar va ta'limotlar asosida yetkazganliklari uchun keyingi davrda ularni sharhlash va sodda germenevtik talqin bilan ilm toliblariga yetkazishga to'g'ri kelgan. Ana shunday izohlovchi asarlar mualliflaridan biri Abu Nasr Forobiy hisoblanadi. U turli yunon faylasuflarining fikrlarini tahlil qiladi. "Aflotun va Aristotel qarashlarining uyg'unlashuvi" asarida Forobiy Platon va Aristotelning qarashlarini yarashtirishga harakat qiladi [4. 28-b.].

Qadimgi yunon mutafakkirlarining ta'limotlarini juda qiyin anglanadigan shaklda bayon etishining sababini Forobiy izohlar ekan, buni ilm o'rganishga ishtiyoqsiz va uni o'rgangan taqdirda ham undan manfaatli foydalana olmaydigan insonlardan muhofaza qilish zarurati bilan asoslaydi. Yunon ma'rifatparvarligi buning natijasida keng miqyosda tarqalmay qolgan. Keyinchalik islom madaniyatida ilm-ma'rifatga intilish ortganda, ayni yunon falsafiy maktabi nazariy asos sifatida xizmat qiladigan manbaga aylangan. Yunon faylasuflarining asarlari sodda tilda sharhlab berilishi ulardagi mazmunni anglashga va shu asosda yana bir kuchli ma'rifiy yuksalish jarayonining boshlanishiga xizmat qilgan. Ta'limda bunday cheklov qilish boshqa xalqlarda ham uchrab turgan.

Germenevtik anglash shu tarzda batafsil va asliy mohiyat darajasida anglangan nazariyaga erishishga yordam beruvchi tushunishni nazarda tutadi. Bunda tushunishga intilishda argumentlar va vositalarning yetarli emasligi yoki chin bo'lmagan dalillarga asoslanish noto'g'ri bilimlar va stereotiplarning jamiyatda avj olishiga sabab bo'ladi. Bunday holat qadimdan inson germenevtik tafakkurida olam va undagi mavjud hodisalarni izohlashda bildirilgan tushunishdan olingan xulosalarning keng yoyilishi asosida salbiy holatlarni kuchaytirgan. Bu holat ilk jamiyatlar hayotida tabiat kuchlarining izohlanishida ilmiy argumentlarning bo'lmaganligi natijasida ularning ilohiy kuch sifatida e'tiqodiy qabul qilinishi misolida kuzatiladi.

S. Allayorova tushuntirishicha, "Germenevtika insonning tushunish qobiliyatini yuksaltirishga qaratilgan ta'limotdir" [5. 5–6-b.]. Biroq bugungi kunda ham ushbu jarayonda badiiy asarlar, falsafiy ta'limotlar va turli dunyoqarashlarni izohlashdagi xatoliklarga yo'l qo'yilishi jamiyatlar hayotida izsiz ketmaydi. Ksenofobiya, diniy fundamentalizmning xavfli ko'rinishlari, radikalizm va boshqa turdagi salbiy holatlar ham ayni shunday tarzda yuzaga kelishi mumkin. Germenevtik izohlashdagi aniqlik va ravshanlik bunday holatlarning cheklanishiga yordam beradi. Ilmiy bilishda bu xolislik, mantiqiylik va retrospektiv yondashuvlar bilan chuqur tahlil qilinishi lozim. Teologiya, ideologiya, aksiologiya kabi falsafiy yo'nalishlarda ayniqsa bunga ehtiyoj ortadi.

Tushunishda aksariyat hollarda insonlar ko'pchilikka asoslangan tanlov doirasida qolib ketadilar. Bu shuni anglatadiki, inson qanchalik rost yoki yolg'on ma'lumot asosida biror narsani tushunmasin, qolganlar bilan bo'lgan muloqoti va ijtimoiy aloqalarini saqlash uchun o'zi mansub bo'lgan madaniyat va milliy mafkura doirasiga rioya qilishda davom etadi. Olam va odamni tushunishda Yevropa Renessansiga qadar xurofot va cherkov o'rnatgan fikrlashni cheklash oqibatida ko'pchilik insonlar o'z qarashlarini omma fikriga monand bildirgan va shaxsiy fikrga ega bo'lmagan davr shunday kechgan edi. Yevropa Renessansi davrida olam va odamni

tushunishda insonlarga erkinlik berilgach, jamiyat dunyoqarashidagi dogmalar barham topib, erkin fikrlash muhiti bo'lgan plyuralizmga yo'l ochildi.

Xalqaro integratsiyalashuv davomida insoniyat o'zlikni anglash va uni ifodalashda, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda falsafiy hermenevtikaga tayangan holda murakkab savollarga javob izlamoda [6. 41-b.]. Tushunish jarayoni bunda qiyinchilik darajasi ortib boradigan bilimlarni izohlaydi va tushunish uchun oson yondashuvlarni ko'rsatib beradi. Hermenevtik anglashning dolzarbligini ham shu bilan izohlash mumkin. Ya'ni inson axborotning mohiyatini eslab qolsa, bu uning ham ta'sirli, ham uzoq vaqt xotirada saqlanishiga yordam beradi va chalkashliklar natijasida yuzaga keladigan nomuvofiqliklarni aqliy mushohada asosida ajratish imkonini yaratadi. Falsafiy ideologiyada hermenevtik tafakkurning ahamiyatini bilgan nemis falsafasi namoyandalari — G. Gadamer, V. Diltey, F. Shleyermaxer va boshqalarning izlanishlari nemis falsafasida bilimlarni o'rganish va ijtimoiy tafakkurning rivojlanishida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Hermenevtik tushunishda natijaga erishish xato dalillar asosida yuzaga chiqsa, bu boshqa xato ilmiy xulosalarga ham asos bo'lishi mumkin. Manbalarga tayanmagan holda hermenevtik talqin qilish tanqid qilinganidek, ishonchsiz manbalarga tayanish ham inkor etilishi lozim. Qur'on oyatlarini sharhlash va tushunishda hadislarini o'rganishning ahamiyati yuqori bo'lgani uchun mashhur muhaddis olimlar, jumladan, Imom Buxoriy ularni ishonchsizlaridan ajratish yo'lidan borgan edi. Biroq bunday ishonchsiz axborot manbalaridan foydalanishni cheklash barcha insonlar tomonidan ham birdek qabul qilinavermaydi.

#### **Xulosa**

Tushunish jarayoni hermenevtik falsafaning negizlaridan biri bo'lib, unda talqin qilinadigan ma'lumotlarning asosli va muvofiq tarzda yetkazilishi hamda xulosalanishida muhim o'rin tutadi. Shaxs yoki jamiyat miqyosidagi anglash jarayonlari insoniyat tamaddunida axborotlarni talqin qilish va mafkuraviy shakllantirishda nazariy vosita bo'lgani uchun, uning ijobiy rivojlanishi uchun tushuniladigan axborotlarning ishonchliligi, kontekst asosida ko'rib chiqilishi va keng qamrovli yondashuv asosida tahlil qilinishi zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Tadjibayev M., Khodjamkulov U., Botirova Sh. Adabiy hermenevtika va badiiy til poetikasi. — T.: Ishonchli hamkor nashriyoti, 2021. — B. 16.
2. Шлейермахер Ф. Герменевтика. — Санкт-Петербург: Европейский дом, 2004. — С. 13.
3. Ruthven M. Islam in the World. — London: Granta, 2006. — P. 90.
4. Altunya H. Farabi'de Dil Felsefesi [magistrlik dissertatsiyasi]. — Süleyman Demirel Üniversitesi, 2003. — S. 28.
5. Allayarova S. N. Falsafiy hermenevtikaning metodologik jihatlarini. — Toshkent, 2010. — B. 5–6.
6. Botirova S. M. Milliy o'zlikni anglashda hermenevtik tafakkurning o'rni // Ilm sarchashmalari. Ilmiy-nazariy metodik jurnal. — 2026. — 3-son. — B. 41.